




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

BD-5112100- 3.15

2016-yil «25» 01



Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi

A handwritten signature in black ink, appearing to be 'Saf', written over a horizontal line.

2016-yil «25» 01

**MEHNAT TA'LIMI PRAKTIKUMI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100 000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100 – mehnat ta'limi

Toshkent – 2016

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "23" 03 dagi "357"- sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2016-yil "8" 09 dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

**Tuzuvchilar:**

- G'.Abduqodirov** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi  
**N.I.Tursunbayev** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetikatta o'qituvchisi  
**X.T.To'lqinova** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

- Q.Muxammadiyev** – TVXTXQTMOI “Amaliy va maktabdan tashqari ta’lim” kafedrası katta o’qituvchisi  
**N.A.Muslimov** – Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi PK QT va ularni MOTM direktori

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil "14" 04 dagi "10"-sonli bayonnoma).

## KIRISH

Mazkur o'quv dasturi oliy o'quv yurtlari kasb ta'limi fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, yog'ochga ishlov berish, chilangarlik, metallarga sovuq holda mexanik ishlov berish, elektrotexnika ishlari, maishiy mehnat sohalari boyicha dastlabki bilimlar, ko'nikma va malakalar berishni belgilab beradi. Shuningdek:

- yog'ochlarga qo'lda va stanoklarda ishlov berish orqali sifatli buyumlar yasash yo'llarini;
- metallarga chilangarlik kesuvchi asboblari yordamida qo'lda ishlov berish va termik ishlash orqali detallar yasash;
- zamonaviy stanoklarda metallarning har xil yuzalariga sovuq holda mexanik ishlov berish;
- elektrotexnika ishlari va texnologiyasi, elektr asboblari va detallari, avtomatik va maishiy xizmat ko'rsatish qurilmalari, ularni tayyorlash va ta'mirlash, oddiy detektorli priyomnikni yig'ish;
- tikuvchilik buyumlarini qo'lda va mashinada tikish hamda ularni bezash, qo'lda va mashinada to'qish, ovqat tayyorlash jarayoni to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlar berishni ko'zda tutadi.

### Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu fanning maqsadi – talabalarga materiallari xillari, xossalari, va mexanik usulda ishlov berish texnologiyasini, xavfsizlik texnikasi asoslarini, birikmalar tayyorlash texnologiyasini, tokarlik, frezalash, randalash, parmalash, stanoklarida ishlov berish nazorat o'lchov va rejalash asboblari, dastaki asboblardan shuningdek, varaka, tunika, sim materiallariga, prokat usulida olingan metallarga ishlov berish parchinlash, rezba qirqish, charxlash va yuqori sifatli buyumlar yasashni o'zlashtirishni va malaka hosil qilishni ko'zda tutadi.

Ushbu fanning vazifasi – materiallarni to'g'ri tanlash, rejalash, arralash, randalash, egovlash, parmalash, birikmalar tayyorlash, stanoklarda mohirona ishlay olish ko'nikma va malakalarni shakllantirishni vazifa qilib qoyadi.

### Fan boyicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qoyiladigan talablar

– zarur bo'lgan materiallarni to'play olish; mehnat qurollaridan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda foydalana olish; mehnatga ijodiy va ongli yondasha olish; yer unumdorligini o'rganish *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak*;

– sodda modellashirishga oid ishlarini bajara olish; qurilish materiallariga ishlov berish; karton, metall, yog'och, kog'oz, matolar bilan ishlay olish; o'zining va o'zgalarning mehnat faoliyatini baholay olish; uy-ro'zg'or ishlarini bajarish; sodda konstruktorlik ishlarini bajarish; mahalliy, tabiiy materiallardan foydalana olish; gazlama, ip va tikuv asboblari bilish; sodda tikuv ishlarini bajara olish; pazandachilik, ovqat qilish ishlarini bajara olish; inson mehnatini faoliyat turlari ajrata olish; asbob uskanalarni saqlanishini ega proyeksiyalar va proyeksiyalash turlari; yig'ma chizmalarini chizish; mexanizm va mashina detallarini loyihalash;

mashina agregatini, uzellarini, detallarining texnik sxemalari, chizmalari, eskizlari, yig'ma va umumiy ko'rinishdagi chizmalar bajarish va o'qish; tikuvchilik ishlari; keng ko'llaniladigan mashina detallarining mustahkamligi va bikrligi, chidamliligi hisobi; maishiy xizmat ko'rsatish asboblari detallar uchun material tanlash; elektr zanjirlarining hisobi, elektr yuritma tizimi va elektron qurilmalar; kasb faoliyatida hayot-faoliyat xavfsizligini tashkil qilish; metallga ishlov berish; yog'ochga ishlov berish; duradgorlik buyumlari detallarini tayyorlash; elektr ishlari; uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash va ekinlarni o'sish sharoitini o'rganishni (tabiiy va sun'iy) ***bilishi, malaka hosil qilish va amalda qo'llay olishi kerak;***

– oziq-ovqat mahsulotlariga birlamchi ishlov berish; sabzavot va mevalarni to'g'rash usullari; dasturxon bezatish; tuxum pishirish, buterbrod tayyorlash, issiq ichimliklar tayyorlash; blinchik pishirish; oshirilgan va oshirilmagan xamlar tayyorlash; suyuq taomlar tayyorlash; o'zbek milliy taomlaridan osh, do'lmalarni tayyorlash; qo'l choklaridan namunalar tikish; beldan va yelkadan kiyiladigan kiyimlar konstruksiyasini tayyorlash; beldan va yelkadan kiyiladigan kiyimlarni model asosida loyihalashtirish; tikuv buyumlarini bichish va tikish, oxirgi ishlov berish; qiyiqcha, choynakyopqich, ushlagich, milliy qo'g'irchoq, do'ppi tikish; buyumlarni ta'mirlash; xona uchun parda va dasturxon tikish; qishloq xo'jalik mashinalari; chorva xayvonlariga qarov berish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

#### **Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviy ketma-ketligi**

Ushbu fanni o'qitishda "Materialshunoslik", "Chizma geometriya va muxandislik grafikasi", "Hayot faoliyatini xavfsizligi", "Materiallarni kesib ishlash, asboblari va stanoklar" va boshqa fanlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.

Dasturda berilgan mavzular talabalarni ko'proq, mustaqil fikrlashga va ilmiylikka, ijodkorlikka, xar bir bajariladigan ishga ijodiy yondashishga yunaltilgan qilib tanlangan.

#### **Fanning ta'limdagi o'rni**

Mazkur fan umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan bevosita aloqada bo'lib, mehnat ta'limi fanini o'qitishda material xillari, xossalari, va mexanik usulda ishlov berish texnologiyasi, xavfsizlik texnikasi asoslari, birikmalar tayyorlash texnologiyasi, tokarlik, frezalash, randalash, parmalash, stanoklarida ishlov berish nazorat o'lchov va rejalash asboblari, dastaki asboblari shuningdek, varaka, tunika, sim materiallariga, prokat usulida olingan metallarga ishlov berish parchinlash, rezba qirqish, charxlash va yuqori sifatli buyumlar yasash xaqida ma'lumotlar berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Ushbu fanni o'qitishda internet va elektron darsliklardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, mashg'ulotlarda yangi pedagogik texnologiya metodlari va asosan o'qitishni interfaol metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**Asosiy qism**  
**Fanning amaliy mashg'ulotlarining mazmuni**  
**Servis xizmati**

Texnika xavfsizlik qoidalari haqida batafsil ma'lumot. Texnikasi xavfsizlik qoidalari noxushliklar yoki baxtsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qilishi haqida ma'lumot. Tikuvchilik ustaxonalarida ishlash jarahati. Asbob-uskunalar, jixozlar, ko'rgazmali qo'llanmalar, ish namunalari saqlanishi. Tikuvchilik buyumlari haqida umumiy ma'lumotlar. Kiyimlar assortimenti va o'lchamlari. Kiyimlarni tikishga qoyiladigan talablar. Kiyimning vazifasi va sinflanishi. Tikuvchilik buyumlarini tayyorlashning asosiy bosqichlari. Tikuvchilik ustaxonalarida ish o'rini tashkil qilish. Sanitariya-gigiena va xavfsizlik texnikasi qoidalari. Qo'lda bajariladigan ishlar. Qo'l ishlari uchun ish o'rini tashkil qilish.

Qo'l choklarini tikishda asbob va moslamalar. Qo'lda bajariladigan ishlarining asosiy usullari. Qaviq va qaviqqatorlar: to'g'ri sirma qaviq, qiya sirma qaviq, yo'rma qaviq, qiya biriktirma qaviq, yashirin biriktirma qaviq, iroqsimon biriktirma qaviq, nusxalama qaviq, to'r qaviq, yolg'on qaviq, halqa qaviq, puxtalama qaviq. Tugma qadash. Qo'lda bajariladigan ishlar terminologiyasi.

Mashina choklarni tikish. Tikuv mashinasining yaratilish tarixi. Tikuv mashinalari haqida umumiy ma'lumotlar. Tikuv mashinalarining sinflanishi. Tikuv mashinalarining asosiy mexanizmlari. Mashinada bajariladigan ishlar uchun ish o'rini tashkil qilish. Kichik mexanizatsiya vositalari. Mashinaga igna va ip tanlash. Baxya va baxyaqatorlar. Mashina choki turlari: birlashtiruvchi choklar, ziy choklar, bezak choklar. Birlashtiruvchi choklar: biriktirma chok, yorma chok, tutashtirma chok, qoyma chok, ichki chok, bostirma chok, qo'sh chok. Ziy choklar: buklama chok, mag'iz chok, ag'darma chok. Bezak choklar: taxlamalar va bo'rtma choklar. Mashinada bajariladigan ishlar. Tikuvchilik buyumlarini namlab-isitib ishlash, uskunalari.

*Bezak namunalari tikish.*

Turli bezak turlari va ularga ishlov berish: bezak beykalar, qoyma burmalar, ikki tomonlama qoyma burmalar. Gazlamalarga bezak berish usullari: vafli, bufflar. Bezak choklar, bo'rtma choklar, taxlamalar, mayda taxlama, Birlashtiruvchi taxlama, Bir tomonlama va ikki tomonga qaragan birlashtiruvchi taxlamalar tikishdan iborat. Bezaklar kiyimni bezash uchun ishlatiladi. Bezaklarning turli tuman xillari mavjud. Bezak sifatida ko'prok furnituralardan (tugmalar, piston, zamok, ilgak va xokazolar), xamda bezak gazlamalar (tasma, to'r, lenta va xokazo)dan foydalaniladi. Bezakning chiroyli turlaridan biri kashta, applikatsiya xisoblanadi. Bezaklarni ko'prok asosiy yoki bezak gazlamalardan foydalanib ishlanadi.

*Kiyimning ayrim detallari va bo'laklarini tikish*

Kiyimda uchraydigan mayda detallarga ishlov berish: bir va ikki qavatli belbog'lar, cho'ntak qopqoqlari va listochkalarni tikish. Detal qirqimlariga ishlov berish, vitachkalar va releflarga ishlov berish. Turli shakldagi koketka turlari va ularga ishlov berish. Izmalarini tikish: maxsus mashinada yo'rtmalangan, qo'lda

halqa qaviqlar bilan yoʻrmalangan va «koʻzli» izmalar. Choʻntaklarga ishlov berish: qirqma choʻntaklar, chokdagi choʻntaklar va qoplama choʻntaklar. Qirqma choʻntaklar: qopqoqli, listochkali, ramkali, molniyali qirqma choʻntaklar. Chokdagi listochkali va qopqoqli choʻntakni tikish. Qoplama choʻntaklar: kantli, qoyma burmali, magʻizli, bezaksiz qoplama choʻntak, astarli qoplama choʻntakni tikish. Bortlarga ishlov berish. Taqilmalarga ishlov berish: bitta va ikkita migʻizli taqilma, oʻtkazma qopqoqli taqilma, molniya tasmali taqilma. Yoqalarga ishlov berish. Yalang va ikki qavatli yoqalarni tikish va ularni boyin oʻmiziga oʻtqazish. Boyin va eng oʻmizlariga ishlov berish: adip va magʻiz bilan tikish. Englarga ishlov berish: eng uchini magʻiz chok bilan tikish, manjetli va rezinkali engni tikish, qoyma burmali engni tikish va ularni oʻmizga oʻtqazish. Koylakning bel va ctak qismlariga ishlov berish. Koylakka oxirgi ishlov berish va namlab-isitib ishlash.

#### *Kiyimlarni loyihalash va tikish asoslari*

Чет эл адабиётидан фойдаланилган ҳолда гавдадан ўлчов олиш қоидалари мукамал ёритиб берилган. Gavdadan oʻlchov olish va ularni belgilash usullari. Chaqaloqlar kiyimini chizmasini M1:4da chizish, M1:1da andoza tayyorlash, andozani gazlamaga joylashtirish va bichish. Bichilgan detallarni tekshirish va tikish. Qiz bolalar fartugi va roʻmolini chizmasini M1:4da chizish, M1:1da andoza tayyorlash, andozani gazlamaga joylashtirish va bichish. Bichilgan detallarni tekshirish va tikish. Qiz bolalar tungi koylagini va trusigi asos chizmasini M1:4da chizish, M1:1da andoza tayyorlash, andozani gazlamaga joylashtirish va bichish. Bichilgan detallarni tekshirish va tikish.

#### **Texnologiya va dizayn**

##### *Chilangarlik ishlari haqida umumiy maʼlumot.*

Chilangarlik ishlari haqida maʼlumot. Chilangarni ish oʻrni  
Chilangarlik oʻquv ustaxonasida xavfsizlik texnikasi va sanitariya gigiena talablari.

Rejalash. Chilangarlik nazorat-oʻlchov va rejalash asboblari. Metallarni tekislash. Metallarni kesish. Metallarni zubilo va kreysmeysel kesish. Zubilo va kreysmeyselni ishga sozlash zubiloningcharxlanish burchagi Chilangarlik tiskilari haqida maʼlumot. Chilangarlik tiskisi turlari, tuzilishi. Ulardan foydalanish usullari Egovlarni turlari, tuzilishi, ishlatilishi. Tekis yuzlarni egovlash, egovlash usullari Har-xil yuzalarni egovlash. Egri yuzalarni egovlash. Egovlash usullari, egovlashda kuchni taqsimlanishi. Parmalash dastgohlarining tuzilishi. Parma turlari. Parmani charxlanish burchagi. Drellarning turlari. Parmalashda xavfsizlik texnikasi qoidalari. Zenkerlash va ulardan foydalanish. Razvyortka qilish va ulardan foydalanish. Metallni qirqish. Qirqish usullari. Arrani ishga sozlash. Arra turlari. Arralash. Arralash usullari. Metallarni qaychida qirqish. Qaychiningturlari, tuzilishi, ishgasozlash, qirqishusullari. Metallarni egish va bukish. Varaqa tunkalardan buyumlar tayyorlash. Buyumlarni tayyorlash jarayonida asbob va moslamalardan foydalanish. Falesli birikmalar. Falesli birikmalarni biriktirish

usullari. Parchinlash to'g'risida tushincha. Parchin mixlarni turlari. Parchinlashda asbob va moslamalar. Parchinlash jarayoni. Qo'lda parchinlash. Parchinlashda xavfsizlik texnikasi qoidalari. Rezba turlari va rezba ochish usullari. Rezba elementlari, sistemasi va profili. Tashqi rezba ochish (Plashka yordamida) Tashqi rezba ochishda ishlatiladigan asbob va moslamalar Ichki rezba ochish (Metchik yordamida). Ichki rezba ochishda parma tanlash Ichki rezba ochishda ishlatiladigan asbob va moslamalar Simlar bilan ishlash. Simlarga ishlov berishda chilangarlik operatsiyalari. Simlarni to'g'rilash, egish, bukish, qirqish. Simlarni ombur, kusachka bilan ishlash. Kesuvchi asboblarni charxlash. Charxlashda xavfsizlik qoidalari. Detallarga termik ishlov berish. Tayyor detall metallarga turlariga qarab rejimini tanlash, ishlov berish va sifatini tekshirish.

### **Yog'ochga ishlov berish**

#### *Duradgorlikning xalq turmushidagi roli va vazifasi*

Kirish. Duradgorlikning xalq turmushidagi roli va vazifasi. Duradgorlik ustaxonasida ish o'rni va jihozlari. Yog'och va uning tuzilishi. Duradgorlikda ishlatiladigan yog'och turlari va xossalari. Duradgorlik ustaxonasining ichki tartib-qoidalari. Texnika havfsizligi, ishlab chiqarish tozaligi va gigiyena qoidalari. Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi. Yog'och materialini kesish to'g'risida umumiy tushuncha. Yog'och materiallarini rejalash, yo'nish, arralash, randalash Chizma, ko'rgazmalar asosida buyumlar yasash; Yasash uchun buyumlar: Plakat taxtachasi; chizma uchun chorcho'p; yo'nalish ko'rsatkich taxtachasi; supurgi dastasi, kurak dastasi, bolta dastasi. Birikmasi egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi Kesuvchi asboblarni ishga sozlash. Ish turiga qarab qirquvchi, yo'nuvchi, uyuvchi uskunalar tanlash. Uskunalarni charxlash va o'tkirlik burchaklarini tekshirish. Buyumlarni teshish uchun parma va yordamchi moslamalarni tanlash va mahkamlash. Yog'och materiallarni uyish va parmalash, pardozlash (silliqlash). Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikma tayyorlash texnologiyasi. Detallarni mix, burama mix, Yog'och mixlar bilan birlashtirish. Birikmani bajarishda qo'llaniladigan moslamalar, asboblarni va materiallar. Mix va burama, Yog'och mixlarni tanlash. Detallarni birlashtirishda sifat talabi. Sifatsizlik turlari va ularni bartaraf qilish. Birlashtiriladigan detalni qalinligiga qarab burama mixlarni tanlash va mahkamlab birlashtirish. Yelimlar yordamida murakkab birikma tayyorlash texnologiyasi. Yelimlar, birlashtiriladigan detal yuzasini yelimlashga tayyorlash. Yelim tanlash. Yelimlarni eritish. Qisuvchi moslamalarni tayyorlash. Detallarni yelim yordamida yig'ish. Yelimning turiga qarab yig'ilgan buyumni yelim ketguncha saqlab turish. Yelimlangan choklarni tozalash. Yelimlangan choklarning sifatini tekshirib ko'rish. Birlashtiriladigan yuzalar sifatini tekshirish. Burchakli murakkab bir tirmoqli birikmalarni tayyorlash texnologiyasi. Tirmoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi. Burchakli va tirmoqli birikmalarni tayyorlashda ishlatiladigan material va asboblarni. Tayyorlanadigan buyumlar: ramka, duradgor guniyasi, kiyim ilgich, eshik va deraza kesakillari. Burchakli o'rtalik birikmalar tayyorlash texnologiyasi. Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasi. O'rtalik birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar, asboblarni va moslamalar tavsifi. Birlashtiruvchi



detallar qalinligiga qarab quloq va turumlar o'lchamini olish, o'rtalik birikmalarni bir tirnoqli berk va qaldirg'och quyruq shaklidagi berk birikmalar ishlash. Murakkab ko'p tirnoqli birikmalar tayyorlash texnologiyasi. Burchakli ko'l tirnoqli birikmalar texnologiyasi va biriktiriladigan birikmalar. Burchakli ko'p tirnoqli birikmalarni bajarishda ishlatiladigan materiallar va asboblari. Moslamalar tavsifi. Ish turiga qarab asboblarni tanlash. Ochiq qaldirg'och va ochiq to'g'ri burchakli ko'p tirnoqli birikmalarni bajarish. Yog'ochlarga kuydirib ishlov berish texnologiyasi Yog'ochlarni kuydirib ishlov berishga ishlatiladigan materiallar va asboblari tanlash hamda rasm chizish. Detallar o'lchamiga qarab kuydiruvchi asboblari va materiallari tanlash. Kuydiruvchi asbob bilan detallarni bir - biriga ishqalash natijasida kuydirish. Yog'och materiallariga pardozi berish va pardozi beruvchi asboblari Yog'ochlarga lak bilan pardozi berishda uning strukturasi to'la bilgan holda pardozi berish. Lakli materiallari tavsifi va uni yuzaga surtish uslubi. Duradgorlik polirotivikasi va uni bajarish texnologiyasi. Yog'och materiallariga mexanik ishlov berish texnologiyasi Dastgohlar tizimining shartli belgilari, konstruktiv elementlari, asosiy va yordamchi iismlari: stanina, support, shpindel, stollar, qirg'ish, uzatish va yordamchi mexanizmlar, gidravlik va pnevmatik yuritmalari. Yog'och materiallariga yumaloq arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi. Yog'ochlarga ishlov beruvchi yumaloq arrali dastgohlar turlari. Ularning kinematik sxemasi, vazifasi va tuzilishi. Dastgohlarning qirg'ish asbobi, ularni o'rnatish va unga quyiladigan talablar. Dastgohlarda bajariladigan ish turlari va dastgohdan foydalanish qoidalari.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- tarqatma materiallari boyicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish.
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash.
- maxsus adabiyotlar boyicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

### **Servis xizmati**

1. Texnika xavfsizlik qoidalari
2. Qo'l choklarini tikish.
3. Mashina choklarni tikish.
4. Bezak na'munalarini tikish.

5. Mayda detallar (elkaband, cho'ntak qopqoq, belband, belbog'lar, kamartutgich) ga ishlov berish.
6. Turli shakldagi koketkalarga ishlov berish.
7. Yengil kiyimlardagi qoplama, qirqma cho'ntaklariga ishlov berish.
8. Engsiz kiyimlarining eng o'miziga ishlov berish.
9. Turli shakldagi boyin o'miziga ishlov berish.
10. Kiyim bortlariga va turli taqilmalarga ishlov berish
11. Turli xil yoqalarga, tik va alohida qaytarmali yoqalarga ishlov berish.
12. Yoqalarni o'mizga o'tqazish.
13. Turli bichimdagi englarga ishlov berish.
14. Manjetni englarga ulash usullari.
15. Koylakning etak qismiga ishlov berish.
16. Shlitsa, kesim va vitichkalarni tikish.
17. Gavdadan o'lchov olish qoidalari.
18. Chaqaloq bolalar kiyimlari: so'lakcha, qalpoqcha, ko'ylagi va polzunkani chizmasini chizish va andozasini tayyorlash.
19. Chaqaloq bolalar kiyimlari: so'lakcha, qalpoqcha, ko'ylagi va polzunkani bichish va tikish
20. Qiz bolalar fartugi va ro'mol chizmasini chizish, andozasini tayyorlash, bichish va tikish
21. Qiz bolalar tungi koylagi chizmasini chizish va andozasini tayyorlash.
22. Qiz bolalar tungi koylagini bichish, kiydirib ko'rishga tayyorlash.

### **Texnologiya va dizayn**

(Chilangarlik metallarga ishlov berish texnologiyasi)

1. O'lchov asboblari va ulardan foydalanish.
2. Metallarga termik ishlov berish.
3. Metrik sistemadagi rezbalarning turlari va ularni kullash.
4. List metallarni kirkish usullari.
5. Metall sirtlariga ishlov berish turlari.
6. Egov turlari va ulardan foydalanish.
7. O'quv ustaxonasiga qoyiladigan talablar.
8. O'lchov asboblari va ulardan foydalanish.
9. Trubalarni egish texnologiyasi va moslamalari Metall sirtlariga ishlov berish turlari.
10. Metallarni parmalash. Parmalash dastgohlarining tuzilishi. Parma turlari.
11. Metallarni zenkerlash va zenkovkalash.
12. Varaqa tunukalarni biriktirish usullari.
13. Parchinlash jarayoni va parchinlashda ishlatiladigan asbob va moslamalar.
14. Detallarning mexanik xossalarni o'zgartirish usullari.
15. Chilangarlik asboblarni charxlash ketma – ketligi

(Duradgorlik yogochga ishlov berish texnologiyasi)

1. O'quv ustaxonasida ish o'rnini tashkil etish.
2. Rejalash asboblari.

3. Arra turlari.
4. Oyish va kesish usullari.
5. Yog'ochga ishlov berish dastgoxi xag'ida tushuncha.
6. Randa turlari.
7. Japs randa va uning ishlatilish soxalari.
8. Elektr parmalash mashinasi (mexanizmi) tuzilishi.
9. Birikmalar va ularning vazifasi
10. Diskli arra tishlari shakli va ularni charxlash.
11. Nazorat - ulchov asboblari.
12. Yogoch materiallarni g'uritish.
13. Ishlab chig'arishni avtomatlashtirish.
14. NS -12 markali paralash dastgoxining tuzilishi va ishlash jarayoni.
15. Burama mixlar tavsifi.
16. Oshik- moshiklar va ularning ishlatilishi.
17. DVP maxsulotlari.
18. DSP maxsulotlari.
19. Shpingaletlar va ularning ishlatilishi.
20. Oynalar va ularning ishlatilishi.
21. Daraxtlarning texnik va mexanik afzalliklari.
22. Faneralar turlari.
23. Yog'ochlarni boyiga arralash usuli.
24. Yog'ochga kuydirib ishlov berish turlari.

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

#### **Didaktik vositalar**

**Didaktik vositalar:** nazorat-o'lchov asboblari, texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar, tikuvchilik va chilangarlik asboblari namunalari, pazandachilikda ishlatiladigan elektr jixozlar, texnologik jarayon kartalari, tarqatma materiallar.

**Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

**Video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

**Kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Q.M.Abdullaeva. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari.-T.: "Adabiyot" 2006.
2. M.SH.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi.-T.: "O'zbekiston", 1994.
3. A.S.Iskandarov. materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asbobl va stanoklar.-T.: «Fan va texnologiya» 2004.
4. N.I.Makiyenko. Slesarlikdan amaliy ishlar.-T.: «O'qituvchi» 1992.

5. R.S.Shermuxevedov, S.S.Yaxyayev, A.E.Parmonov. Chilangarlikdan amaliy ishlar.-T.: «Iqtisod-moliya» 2007.
6. G'.M.Abduqodirov. Kasb ta'limi praktikumi.-T.: "Sharq" 2012.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. V.A.Mirboboyev. "Konstrukcion materiallar texnologiyasi"-T.: «O'qituvchi» 2004.
2. K.B.Usmonov. "Metall kesish asoslari" T.: «O'qituvchi» 2004.
3. William Fairham "Woodwork joints 2008"
4. Ashish Kashyap, Rashmi Sharan, Rishika Jalali Little Girls Dress Making Course Book Copyright © 2011 USHA INTERNATIONAL LIMITED

#### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

